TIKUV-TRIKOTAJ KORXONALARDA VOSITACHILARNI MOTIVATSIYALASH MASALALARI.....	1528
<i>Jalilov Jamshid G'anjionovich</i>	
SOLIQ MA'MURIYATCHILIGI SUBEKTLARI O'RTASIDAGI O'ZARO HAMKORLIK MEKANIZMLARINING RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIGA MOS TRANSFORMATSIYASI	1534
<i>To'rayev Shavkat Shuxratovich, Ibadullayev Sanjar Sodiqmuratovich</i>	
YASHIL IQTISODIYOT VA KAMBAG'ALLIKNI QISQARTIRISH O'RTASIDAGI O'ZARO BOG'LIQLIK.....	1540
<i>Yaxshibayev Ulug'bek Shavkat o'g'li</i>	
THE IMPORTANCE OF SPOKEN ENGLISH IN GLOBAL COMMUNICATION	1545
<i>Dr. Mamatkulova Shohista Jalolovna</i>	
MAHALLIY DAVLAT ORGANLARINI RAQAMLASHTIRISHNING IQTISODIY SAMARADORLIGI	1549
<i>Nurmurodov Zafarjon Nurmurod o'g'li</i>	
IQTISODIYOTNI DEKARBONIZATSIYALASH: MOHIYATI VA IMKONIYATLARI.....	1554
<i>Xashimova Salima Nigmatullayevna</i>	



RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA QISHLOQ XO'JALIGI ISHLAB CHIQARISHNING SAMARADORLIGINI OSHIRISH.....	1558
B.B.Mambetnazarov, Tureev Atabek Abatovich	
BUXORO VOHASINING MUSULMON ZIYORAT TURIZMI IMKONIYATLARINI BAHOLASH: ACES 3.0 METODIKASI ASOSIDAGI TAHLIL	1563
Kurbanova Mohinur Xabib qizi	
KICHIK KORXONALARDA ISHLAB CHIQARISH OMILLARI SAMARADORLIGINI OSHIRISHNING NAZARIY YONDASHUVLARI.....	1568
Mustafakulova Nodira Primovna	
BEVOSITA VA BILVOSITA SOLIQA TORTISHNI OPTIMAL TASHKIL ETISH METODOLOGIYASI	1572
Qodirov Baxodir Qudratovich	
SUT VA SUT MAHSULOTLARI KORXONALARIDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARIDAN SAMARALI FOYDALANISHNING USLUBIY JIHATLARI	1577
Normuradov Nurbek Sunatilloevich	
ЦИФРОВИЗАЦИЯ БУХГАЛТЕРСКОГО УЧЁТА И ЕЁ ВЛИЯНИЕ НА ВНУТРЕННИЙ АУДИТ В КОММЕРЧЕСКИХ БАНКАХ	1581
Шарахметов Шерзад Шаазимович	
O'ZBEKISTON "YASHIL" IQTISODIYOT SARI: QAYTA TIKLANUVCHI ENERGIYA MANBALARINING RIVOJLANISH METODLARI.....	1588
Qodirov Baxodir Tursunovich	
IQTISODIY XAVFSIZLIKNING MOHIYATI VA MAZMUNI.....	1592
Feruz Mirzoyeva Salimovna	
YASHIL O'SISH, YASHIL IQTISODIYOT VA BARQAROR RIVOJLANISH: ATAMAVIY VA O'ZARO BOG'LIQLIK MASALASI.....	1597
Djalilov Sardor Sadilloevich	
YASHIRIN IQTISODIYOTNI QISQARTIRISHDA SOLIQ MA'MURCHILIGINI RIVOJLANTIRISH ORQALI DAROMAD VA XARAJATLARNI DEKLARASIYALASHNING TUTGAN O'RNI	1601
Mamatkulov Salimjon Raxmonkulovich	
DIGITAL ECONOMY AND GREEN TECHNOLOGIES: INNOVATIONS ON THE ROAD TO SUSTAINABLE DEVELOPMENT	1606
Amiriddinova Madinabonu Zayniddin kizi	
FARG'ONA VODIYSIDA FAOLIYAT YURITAYOTGAN TO'QIMACHILIK KORXONALARINING EKSPORT SALOHİYATI TAHLILI VA ULARNI BAHOLASH	1609
Qodirov Humoyun Tolibjon o'g'li	
SIFAT VA RAQOBATBARDOSHLIK.....	1616
Xasanova Robiyaxon Kamoliddin qizi, Yuldashev Abduhakim Abdukarimovich	
O'ZBEKISTONDA IPOTEKA KREDITLASH JARAYONINI TASHKIL ETISHNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI.....	1620
Mardiyev Akrom Djumaboyevich	
BIRLAMCHI TIBBIY-SANITARIYA MUASSASALARINI NATIJADORLIK INDIKATORLARI ASOSIDA MOLIYALASHTIRISH ISTIQBOLLARI	1627
S.J. Sultanov	
TIJORAT BANKLARIDA KOMPLAENS NAZORAT VA MOLIYAVIY XAVFSIZLIKNI TA'MINLASHNING NAZARIY-USLUBIY ASOSLARI	1633
Ulashbayev Shohruh Abdivaxobovich	
BIOMASSA ASOSIDA OZUQA ISHLAB CHIQARISH ORQALI IQTISODIY SAMARADORLIKGA ERISHISHNING AYRIM JIHATLARI	1639
Xazratkulov Niyoz Namazbayevich	
STRATEGIC MANAGEMENT AND DEVELOPMENT OF CORPORATE TALENTS	1644
Shoyunusova Arofat, Sanjar Mirzaliev	
AGROTIZIMDA ANOR YETISHTIRISHNING O'RNI VA IQTISODIY AHAMIYATI	1648
Ortiqov Sulton Davronqul o'g'li	
TO'QIMACHILIK SANOATINI HOZIRGI KUNDAGI TAHLILI	1652
Mahmudova Chinora Anvar qizi	
XORIJIY INVESTITSIYALARNI JALB QILISHDA IMTIYOZLAR VA KAFOLATLAR TIZIMINING AHAMIYATI	1657
Nizamov Xusniddin Fazliddinovich	



SANOAT TARKIBIY O'ZGARISHLARINING IQTISODIY RIVOJLANISHGA TA'SIRINING EKONOMETRIK TAHLILI (XORAZM VILOYATI MISOLIDA).....	1663
Jumaniyazov Nodirbek Odilbek o'g'li	
MINTAQAVIY RIVOJLANISH SHAROITIDA SHAHARLAR AGLOMERATSIYASINI RIVOJLANTIRISHNING NAZARIY JIHLTLARI.....	1670
Abdulkakimov Zuxrali Tursunaliyevich	
TIBBIY XIZMAT KO'RSATUVCHI KORXONALAR SAMARADORLIGINI IFODALOVCHI KO'RSATKICHLAR.....	1674
O'roqov Firdavs Ortiqniyoz o'g'li	
СОВРЕМЕННЫЕ ТЕНДЕНЦИИ И МЕТОДЫ ФИНАНСОВОГО АНАЛИЗА В ДЕЯТЕЛЬНОСТИ АКЦИОНЕРНЫХ КОМПАНИЙ.....	1678
Бекбаева Феруза Бахтиеровна	
AUDITNING XALQARO STANDARTLARI ASOSIDA BUDJET BILAN HISOB-KITOBLAR AUDITINI TASHKIL QILISHNING AMALIY JIHLTLARI.....	1684
Rashidov Zuhridin Sanjar o'g'li	
RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA SOLIQ TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH MASALALARI	1690
Radjabov Umurzoq Ablakulovich	
АКТУАЛЬНЫЕ ВОПРОСЫ СОВЕРШЕНСТВОВАНИЯ ПРАКТИКИ УПРАВЛЕНИЯ ВАЛЮТНЫМИ РИСКАМИ КОММЕРЧЕСКИХ БАНКОВ	1695
Тугалов Бобур Қаршибой угли	
DYUZDO SPORTIDA JAROHATLAR PROFILAKTIKASI VA TIBBIY TIKLANISH USULLARINING SAMARADORLIGI.....	1699
Tangriyev Abdullo Tovashovich	
HAVO TRANSPORTI ORQALI YUK TASHUVCHI TADBIRKORLIK SHAKLLARI VA UNDAGI MUOMMOLAR.....	1703
Anvarova Dilfuza Abdusattor qizi	
HUDUDIY IQTISODIYOTDA INNOVATSION SIYOSAT MEKANIZMINI SHAKLLANTIRISHNING TIZIMLI MODELI	1709
G'aniyev Sanjar Poziljon o'g'li	
СОВРЕМЕННАЯ МОДЕЛЬ УЧЕТА ЗАТРАТ И АУДИТА В УЗБЕКИСТАНЕ: НАЦИОНАЛЬНАЯ БАЗА И МСА.....	1716
Юлчиев Ойбек Улуғбек ўгли	
TIJORAT BANKLARIDA YANGI BANK XIZMATLARINI JORIY ETISHDA HORIJYIY TAJRIBALARNI INTEGRATSIYALASH YO'LLARI.....	1723
Umarov Abdulquddus Abdilxatovich	
YASHIL IQTISODIYOTGA O'TISH DAVRIDA KICHIK BIZNES IMKONIYATLARINI KENGAYTIRISH.....	1731
Isroilov Dilshodbek Rustamovich, Isroilova Odina Rustambek qizi	
O'RMON XO'JALIGINI MOLIYALASHTIRISHDA MOLIYAVIY RESURLAR VA MANBALAR.....	1737
Mamatqulova Muxlisa Mamirjanovna	
ZAMONAVIY JAHON IQTISODIYOTIDA OZIYQ-OVQAT XAVFSIZLIGI, ISROFI VA YO'QOTISHLARINI KAMAYTIRISH MASALALARI.....	1743
Nazarova Gulbahor Raxmonkulovna	
KORXONA FOYDASI VA UNING RAQOBATBARDOSH NARX SIYOSATINI MAKSIMALLASHTIRISH YO'LLARI.....	1748
Axmadjonov Murodjon Axadjon o'g'li	
DEVELOPMENT PRIORITIES FOR THE FRUIT AND VEGETABLE SECTOR IN THE CONTEXT OF UZBEKISTAN'S FOOD SECURITY POLICY	1754
Nazarova Munavvar Soatmurod qizi	
XIZMAT KO'RSATISH KORXONALARIDA HR MEKANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH ORQALI IQTISODIY SAMARADORLIGINI OSHIRISH IMKONIYATLARI	1761
Xamroyeva Kumush Alisherovna	
QURILISH SANOATIDA BARQAROR RIVOJLANISH VA YASHIL IQTISODIYOT TAMOYILLARI.....	1768
G'ulomova Shaxlo Baxtiyor qizi	
TURISTIK DESTINATSIYA TUSHUNCHASINING NAZARIY-KONSEPTUAL ASOSLARI	1772
Bekberganov Izzat Hurmat o'g'li	
TRANSPORT XIZMATLARI BOZORI TUSHUNCHASI VA UNING IQTISODIYOTDAGI O'RNI.....	1775
Jo'rayeva Shahzoda Farhod qizi	
O'ZBEKISTONDA QURILISH MAXSULOTLARI ISHLAB CHIQRADIGAN KORXONALARNING RAQOBATBARDOSHLIGI TAHLILI	1781
Yusufova Laylo G'ayrat qizi	



RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA BANK MAHSULOTLARINI TAKOMILLASHTIRISH TENDENSIYALARI.....	1788
Xujamuratov Abbos Mardonovich	
PR-BO'LIMI FAOLIYATINI TASHKIL ETISHNING TARKIBIY-FUNKTSIONAL YONDASHUVLARI.....	1792
Ergasheva Fotimaxon Ibragimovna	
TURIZM XIZMATLARINI RIVOJLANISHINING O'ZIGA XOS TENDENSIYALARI	1797
Xujakulova Odina Valijonovna	



TURIZM XIZMATLARINI RIVOJLANISHINING O'ZIGA XOS TENDENSIYALARI

Xujakulova Odina Valijonovna

O'zbekiston Respublikasi
Bosh prokuraturasi huzuridagi
Majburiy ijro byurosi
Toshkent viloyat Boshqarmasi
tumanlararo bo'limi davlat ijrochisi

Annotatsiya. Ushbu maqolada rekreatsion hududlarga yangi xizmat turlarini tatbiq etish, iqtisodiy samaradorlikni oshirish, iqtisodiyotni barqaror rivojlantirishda turizm xizmatlarini yanada rivojlantirish, hududlarga turizm xizmatlarini rivojlantirishga to'g'ridan-to'g'ri investitsiyalarni jalb qilish, yangi ish o'rinlarini yaratish, shuningdek yangi xizmat turlarini joriy etish, turistik resurslardan maqsadli foydalanish, xizmatlarni takomillashtirishda xorij tajribasidan foydalanish, "HR" xizmatlarini rivojlantirish hamda turizm xizmatlari bozorini tartibga solishning ilmiy-uslubiy yondashuvi to'g'risidagi fikr va mulohazalar keltirilgan.

Kalit so'zlar: innovatsion, rekreatsion hududlar, turistik resurs, obyektiv zaruriyat, zamonaviy xizmatlar, iqtisodiy samaradorlik, rivojlanish tendensiyasi, valyuta almashuvi, to'g'ridan-to'g'ri investitsiya.

Abstract. This article presents opinions and considerations regarding the introduction of new types of services in recreational areas, the increase of economic efficiency, the further development of tourism services for sustainable economic growth, the attraction of direct investments to the development of tourism services in regions, the creation of new jobs, as well as the implementation of new service types, targeted use of tourism resources, application of foreign experience in improving services, the development of HR services, and the scientific-methodological approach to regulating the tourism services market.

Key words: innovative, recreational areas, tourism resources, objective necessity, modern services, economic efficiency, development tendency, currency exchange, direct investment.

Аннотация. В данной статье представлены мнения и соображения, касающиеся внедрения новых видов услуг в рекреационных зонах, повышения экономической эффективности, дальнейшего развития туристических услуг для устойчивого экономического роста, привлечения прямых инвестиций в развитие туристических услуг в регионах, создания новых рабочих мест, а также внедрения современных видов обслуживания, целевого использования туристических ресурсов, применения зарубежного опыта в совершенствовании услуг, развития HR-служб и научно-методического подхода к регулированию рынка туристических услуг.

Ключевые слова: инновации, рекреационные зоны, туристические ресурсы, объективная необходимость, современные услуги, экономическая эффективность, тенденции развития, валютный обмен, прямые инвестиции.

KIRISH

So'nggi yillarda turizm dunyo miqyosida eng tez sur'atlarda rivojlanayotgan tarmoqlardan biriga aylandi. Turizm nafaqat iqtisodiy foyda keltiruvchi soha, balki mamlakatlar o'rtasida madaniy aloqalarni kuchaytiruvchi, xalqaro hamkorlikni mustahkamlovchi vosita sifatida ham muhim ahamiyat kasb etadi. Bugungi globallashuv davrida insonlarning sayohatga bo'lgan ehtiyoji ortib bormoqda, bu esa turizm xizmatlarining yangi shakl va yo'nalishlarda rivojlanishiga sabab bo'lmoqda. Turizm xizmatlari sohasida raqamli texnologiyalar, ekologik barqarorlik, individual yondashuv va sog'lom turmush tarzini qo'llab-quvvatlovchi xizmatlar tobora dolzarb bo'lib



bormoqda. Shu bilan birga, pandemiyadan keyingi davrda xavfsizlik, sog'lomlashtirish va mahalliy turizmga e'tibor kuchaydi. Mazkur mavzuning dolzarbligi shundaki, turizm xizmatlarining rivojlanish tendensiyalarini tahlil qilish, ularning zamonaviy yo'nalishlarini o'rganish va bu jarayonda O'zbekiston tajribasini tahlil etish orqali sohani yanada samarali rivojlantirish yo'llarini aniqlash mumkin.

Turizm sohasining milliy iqtisodiyotga ko'rsatgan ijobiy ta'siri mamlakatda u faqat har tomonlama rivojlangandagina ko'rinadi. Ya'ni, turizm sohasining samaradorligiga uning mamlakatdagi boshqa ijtimoiy-iqtisodiy tarmoqlar bilan parallel ravishda va o'zaro aloqada rivojlanishi natijasida erishiladi. Turizm sohasi mahalliy aholi hamda xorijiy fuqarolar boradigan mamlakat yoki mintaqalarning tarixi, u yerdagi tarixiy arxitektura obyektlari, mahalliy aholining urf-odatlarini, an'analarini, marosimlarini bo'yicha bilimlarini oshirish, dam olish va davolanish uchun imkoniyat yaratib berish bilan bir qatorda shu mamlakat yoki mintaqa iqtisodiyotiga bevosita valyuta oqimini olib kiradi. Bu esa mahalliy aholining yashash sharoitini yaxshilash va ularni ish bilan ta'minlashga ko'maklashadi. Turizm sohasi milliy iqtisodiyotning alohida tarmog'i sifatida o'ziga xosligi bilan ajralib turadi. Uning mahsuloti muayyan turdagi xizmatlardan foydalanish huquqini ifodalaydi, bu xizmatlarning o'zi esa iqtisodiyotning boshqa tarmoqlarida yaratiladi.

Jahonda turizm xizmatlari bozorini rivojlantirishga to'siq bo'layotgan asosiy muammolarni aniqlash va ularning samarali yechimlarini izlashga qaratilgan tadqiqotlarni olib borish hozirgi davrda ustuvor yo'nalishlardan biri hisoblanadi. Bu jarayonda hududiy turizm mintaqaning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishining muhim omili sifatida qaralmoqda va milliy iqtisodiyotda turizmni rivojlantirishning samarali modelini ishlab chiqishga alohida e'tibor berilmoqda. Bunda hududiy turizmga to'g'ridan-to'g'ri investitsiyalarni jalb qilish va turizmning iqtisodiy samaradorligini oshirish muhim masalalar qatoriga kiradi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Hududiy turizmni rivojlantirishning iqtisodiy samaradorligini oshirish masalasi bo'yicha dunyoning yetakchi olimlaridan Mayk Stavenxa, R.M. Bolmostor, M.B. Birjakov, V.I. Nikiforov va boshqa ko'plab tadqiqotchilar o'z ilmiy izlanishlarida atroflicha to'xtalib o'tganlar. Xususan, S.G. Surkov va V.I. Krivoruchko muallifligidagi "Международный туризм в России: проблемы развития и управления" nomli asarda Rossiyada xalqaro turizm bozori rivojlanishining asosiy yo'nalishlari, integratsion jarayonlar, turizm industriyasi subyektlari faoliyati, xalqaro turizmni tartibga solish mexanizmlari, xalqaro turistik siyosatning maqsad, vazifa va ustuvor yo'nalishlari bo'yicha tadqiqotlar olib borilgan [1].

Shuningdek, mamlakatimizning yetakchi olimlaridan M.T. Alimova o'zining "Hududiy turizm bozorining rivojlanish xususiyatlari va tendensiyalari" nomli doktorlik dissertatsiyasida turizm bozorida talab va taklifni muvofiqlashtirish, marketing konsepsiyasi orqali turistik mahsulotlarning raqobatbardoshligini oshirish, turizm sohasi rivojlanishining tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarini takomillashtirish hamda hududiy turistik klasterini shakllantirish bo'yicha ilmiy mulohazalarni bayon etgan [2]. Asarda, shuningdek, turizm rivojlanishining iqtisodiy samaradorligini oshirish omillari, globallashuv jarayonlarining turistik faoliyatga ta'siri va turizm destinatsiyasining rivojlanish xususiyatlariga alohida e'tibor qaratilgan.

I.S. Tuxliyev, R. Hayitboyev, B.Sh. Safarov va G.R. Tursunova tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda esa mamlakatimizda turizm sohasini va industriyasini rivojlantirish, turistik-rekreatsion xizmatlarni kengaytirish masalalariga bag'ishlangan ilmiy ishlarda rekreatsion xizmatlarning shakllanishi, davlat tomonidan tartibga solish mexanizmlari hamda turizm infratuzilmasini rivojlantirish masalalari atroflicha yoritilgan [3].

M.T. Aliyeva o'z ilmiy izlanishlarida kichik mehmonxonalarning aksariyati mustaqil tarzda faoliyat yuritishini ta'kidlab, bu turdagi mehmonxonalar mulkdorning erkin tasarrufida bo'lishini qayd etadi. U boshqaruv yoki xizmat belgilaridan foydalanish bo'yicha boshqa kompaniyalar bilan tuzilgan shartnomaviy majburiyatlarning mavjudligi korxonaning mustaqil xo'jalik subyekti sifatidagi maqomini o'zgartirmasligini alohida ta'kidlaydi [4].

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqot ishida so'nggi yillarda respublikamiz iqtisodiyotining transformatsiyalashuv jarayonlari hamda jahon miqyosida yuz berayotgan salbiy iqtisodiy o'zgarishlar sharoitida turizm sohasini kompleks rivojlantirish, turizm rivojlanishining iqtisodiy samaradorligini oshirishning obyektiv zaruriyati va ahamiyati o'rganilgan. Ushbu yo'nalishda iqtisodchi olimlar va mutaxassislarining ilmiy fikrlariga tayangan holda analiz va sintez, kuzatish, guruhlash, qiyosiy tahlil, tizimli yondashuv, tarixiy-mantiqiy, operatsiyalarni tadqiq etish, statistik va iqtisodiy tahlil kabi usullar qo'llangan. Natijada, turizm sohasi rivojlanishining ustuvor yo'nalishlarini belgilash, hududlarda turistik obyektlar faoliyatini samarali tashkil etish, turistik infratuzilmani oqilona rivojlantirish, sifatli kadrlarni tayyorlash va turizm industriyasini qo'llab-quvvatlash darajalariga oid aniq ilmiy-amaliy tavsiyalar ishlab chiqilgan.




TAHLIL VA NATIJALAR

Hududiy turizmni rivojlantirishda iqtisodiy samaradorlikni oshirish bilan bog'liq muammolar, shuningdek, turizmning ijtimoiy-iqtisodiy samaradorligini baholashda joriy, oraliq va yakuniy ko'rsatkichlarning nazariy hamda metodologik jihatlarini chuqur tadqiq etish masalalari hali yetarli darajada o'rganilmagan. Shu bois mazkur yo'nalishdagi izlanishlar tadqiqotning dolzarbligini belgilaydi. Hududlarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishidagi islohotlar va turizmga bo'lgan e'tiborning ortishi ushbu sohada ilmiy-tadqiqot ishlarining kengayishiga olib kelmoqda. Bugungi kunda kishilar o'z bo'sh vaqtlarida doimiy yashash joylaridan tashqarida, boshqa mamlakatlarda yoki o'z yurti ichida taassurot orttirish, dam olish, sog'ligini tiklash, mehmondorchilik, bilim olish yoki kasbiy maqsadlarda sayohat qilmoqdalar. Ular borgan joylarida pul bilan rag'batlantirilmaydigan faoliyat bilan shug'ullanadigan soha — turizm — keng rivojlanib bormoqda.

Bu borada mamlakatimizning barcha hududlarida keng ko'lamli islohotlar amalga oshirilmoqda. Har bir hududning tabiiy, ekologik, iqtisodiy, ijtimoiy va tarixiy-geografik jihatlaridan kelib chiqqan holda turizmni rivojlantirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Biroq yurtimizning turistik salohiyatini yanada oshirish, ayniqsa, sayyohlarni mamlakatning eng chekka hududlariga ham jalb qilish hali to'liq darajada yo'lga qo'yilgan deb bo'lmaydi. Shu sababli hududiy turizmni rivojlantirish muhim ahamiyatga ega bo'lib, eng chekka hududlardagi mavjud turistik imkoniyatlarni o'rganish, targ'ib qilish va bu yo'nalishdagi muammolarni bartaraf etish choralarini ishlab chiqish zarur hisoblanadi.

Turizm sohasini rivojlantirish bo'yicha bugungi kunda yurtimizda olib borilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy islohotlar ham alohida ahamiyat kasb etadi. Mamlakatimizda davlat rahbari tashabbusi bilan ishlab chiqilgan 2022–2026-yillarga mo'ljallangan “Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi” doirasida yettita ustuvor yo'nalish belgilangan bo'lib, “Inson qadrini ulug'lash va faol mahalla yili”da xalq manfaatlariga qaratilgan keng qamrovli islohotlar amalga oshirilmoqda. Yoshlarni madaniyat, san'at, jismoniy tarbiya va sportga keng jalb etish, ularning axborot texnologiyalaridan foydalanish ko'nikmalarini shakllantirish, kitobxonlikni targ'ib qilish va xotin-qizlar bandligini oshirishga qaratilgan besh muhim tashabbus hayotga samarali tatbiq etilmoqda. Ushbu islohotlarning mazmun-mohiyati va ahamiyatini aholiga yetkazish, targ'ibot tadbirlarini mahallalar kesimida o'tkazish, fuqarolarning kayfiyatini ko'tarish maqsadida shu yilning noyabr oyida mamlakatimizning barcha hududlarida “Yangi O'zbekiston – yangicha dunyoqarash” nomli ma'naviy-ma'rifiy targ'ibot tadbirlari tashkil etilgan bo'lib, bu yurtimizning turistik salohiyatini yanada oshirishga xizmat qilmoqda.

Hudud aholisining xorijiy turizm xizmatlaridan foydalanishi natijasida valyuta oqimining tashqariga chiqib ketishi kuzatilmoqda. Shu bois ichki turizmni qo'llab-quvvatlash maqsadida mahalliy aholining daromadlariga mos xizmatlar paketini ishlab chiqish va uni muntazam ravishda takomillashtirib borish zarur. Hududiy turizm xizmatlarini rivojlantirishda turistlarning tashrif buyurish dinamikasining barqaror o'sish tendensiyasi muhim omil hisoblanadi (1-rasm).



1-rasm. turizm xizmatlarini eksportini rivojlantirish tendensiyasi, 2018-2024-yillarda kiruvchi turistlar kesimida (mln) [5]

Bizningcha, hududiy turizmning iqtisodiy samaradorligini oshirishda salbiy ta'sir ko'rsatuvchi omillarning ta'sir doirasini kamaytirish bo'yicha zarur mexanizmlarni ishlab chiqish muhim ahamiyatga ega. Xususan, turizmga cheklovlar yuzaga kelganida bu sohaning passiv (nofaol) sohaga aylanib qolmasligi uchun xizmatlar



turlarini diversifikatsiya qilish, ularning qamrovini kengaytirish, virtual va “smart” xizmatlarni rivojlantirish zarur.

Bugungi kunda turizm dunyo iqtisodiyotining eng jadal rivojlanayotgan tarmoqlaridan biridir. U faqat dam olish yoki sayohat qilish vositasi emas, balki mamlakatning iqtisodiy o‘shishida, xalqaro hamkorlikni kengaytirishda va madaniy qadriyatlarni targ‘ib etishda muhim o‘rin tutadi. Shu sababli, turizm xizmatlarining rivojlanish tendensiyalarini o‘rganish hozirgi davrning eng dolzarb masalalaridan biri hisoblanadi.

Dunyo miqyosida turizm xizmatlari yangi bosqichga ko‘tarilgan. Avvalo, raqamli texnologiyalar bu sohada tub o‘zgarishlarni yuzaga keltirdi. Endilikda turistlar internet orqali tur paketlarini tanlash, mehmonxonalarni bron qilish, samolyot chiptalarini xarid qilish, hattoki virtual sayohatlar qilish imkoniyatiga ega. Sun‘iy intellekt asosida ishlab chiqilgan dasturlar esa har bir mijoz uchun eng maqbul yo‘nalish va xizmat turini aniqlab, individual takliflar berishni ta‘minlamoqda.

Yana bir muhim tendensiya — barqaror (eko) turizmning rivojlanishidir. Bugungi kunda sayyohlar atrof-muhitni asrash, tabiiy manzaralarni saqlab qolish va mahalliy aholiga zarar yetkazmaslikka alohida e‘tibor qaratmoqdalar. Shu bois, ko‘plab davlatlarda “yashil” mehmonxonalar, chiqindsiz xizmatlar hamda ekologik transport vositalari keng joriy etilmoqda.

Zamonaviy turistlar o‘ziga xos, shaxsiy tajribaga asoslangan sayohatlarni afzal ko‘rishmoqda. Bu esa individual turizmning jadal rivojlanishiga olib kelmoqda. Har bir sayyoh o‘zining qiziqishlariga mos ravishda yo‘nalish, ovqatlanish turi va madaniy dasturlarni tanlaydi. Shu tariqa “tailor-made” — ya‘ni buyurtmaga moslashtirilgan tur paketlar tobora ommalashmoqda.

Bundan tashqari, sog‘lomlashtirish (wellness) turizmi ham tez sur‘atlarda o‘smoqda. Pandemiya davridan so‘ng insonlar sog‘lig‘iga, ruhiy tinchlikka va dam olish sifatiga yanada ko‘proq e‘tibor bera boshladilar. Shu bois, spa markazlar, sanatoriyalar, yoga va tibbiy turizm yo‘nalishlariga talab oshgan.

O‘zbekiston misolida ham turizm xizmatlarining o‘ziga xos rivojlanish tendensiyalarini kuzatish mumkin. So‘nggi yillarda mamlakatimizda ichki turizmni rivojlantirishga katta e‘tibor qaratilmoqda. Turli hududlarda yangi dam olish maskanlari, mehmonxonalar va turizm markazlari bunyod etilmoqda. Shuningdek, talabalar va yoshlar uchun maxsus imtiyozli sayohatlar tashkil etish tizimi yo‘lga qo‘yilgan.

O‘zbekistonning boy tarixiy va diniy merosi tufayli ziyorat turizmi ham yildan-yilga rivojlanib bormoqda. Samarqand, Buxoro, Termiz va Xiva kabi qadimiy shaharlar nafaqat ichki, balki xorijiy sayyohlar uchun ham diqqatga sazovor maskanlar hisoblanadi. Imom Buxoriy, Bahouddin Naqshband, Termiziy kabi buyuk allomalar maqbaralariga tashrif buyurish diniy turizmni yanada rivojlantirmoqda.

Bundan tashqari, mamlakatimizda agro va etno-turizm yo‘nalishlari ham shakllanmoqda. Turistlar qishloq hayoti bilan tanishish, milliy taomlar tayyorlash jarayonida ishtirok etish, hunarmandchilik faoliyatini kuzatish imkoniga ega bo‘layotganligi bu yo‘nalishning ommalashishiga sabab bo‘lmoqda. Bunday tajribalar sayyohlar uchun qiziqarli, mahalliy aholi uchun esa qo‘shimcha daromad manbasi hisoblanadi.

Hozirgi kunda O‘zbekistonda turizm infratuzilmasini modernizatsiya qilish, xizmat ko‘rsatish sifatini oshirish va raqamli texnologiyalarni keng joriy etish ishlari faol amalga oshirilmoqda. “E-visa” tizimi, onlayn bron qilish platformalari va xalqaro transport aloqalarining kengaytirilishi sayyohlar uchun qulay sharoit yaratmoqda.

Bugungi kunda turizm sohasida virtual xizmatlar yangi yo‘nalish sifatida tez sur‘atlarda rivojlanmoqda. Virtual xizmatlar shu darajada shakllanganiki, ular tizimli faoliyat sifatida yo‘lga qo‘yilgan. Hududiy turizmning iqtisodiy samaradorligini oshirishda zamonaviy xizmatlarga moslashish orqali turistlar oqimini barqaror ushlab turish mumkin.

O‘zbekistonda hududiy turizmni rivojlantirishning asosiy maqsadi — dunyo bozorida raqobatbardosh turistik mahsulot yaratish, mamlakat aholisining turizmga bo‘lgan ehtiyojini maksimal darajada qondirish, tarixiy-madaniy meros va milliy an‘analarni asrab-avaylash hamda ekologik “yashil” hududlarni ko‘paytirish orqali hududlarning kompleks rivojlanishi va ijtimoiy-iqtisodiy manfaatlarini ta‘minlashdan iboratdir.

Iqtisodiyotning rivojlanishida turizm sohasida yetakchi o‘rinlarni egallagan Toshkent, Samarqand, Buxoro, Xorazm, Surxondaryo, Qashqadaryo viloyatlari va Farg‘ona vodiysi hududlarida jozibador turistik-rekreasion imkoniyatlar mavjud. Hududiy turizmning rivojlanishi ko‘proq sanatoriy-kurort hamda davolovchi dam olish maskanlari, hududlarni rivojlantirishga yo‘naltirilgan dastur va tadbirlarga bog‘liq bo‘lib, zamonaviy dam olish sharoitlarini yaratish, kurort-turizm tashkilotlarini davolashning ilg‘or uskuna va texnologiyalari bilan ta‘minlash orqali sohaning samaradorligini yanada oshirishga xizmat qiladi.

Bugungi kunda O‘zbekistonning hududiy turizm bozori rivojlanish bosqichida bo‘lib, unda sezilarli o‘shish salohiyati mavjud. Mamlakatimizda rekreasion obyektlar soni ortib borayotgani, aholi farovonligining oshishi hamda xorijiy turistlarning dam olish va sog‘lomlashtirish xizmatlariga qiziqishi turizm infratuzilmasini yanada kengaytirish zaruratini yuzaga keltirmoqda. Ayniqsa, Surxondaryo, Navoiy, Andijon va Buxoro viloyatlarida yangi sanatoriyalar, dam olish maskanlari, pansionatlar va bolalar sog‘lomlashtirish muassasalarini tashkil etish katta iqtisodiy va ijtimoiy samara berishi kutilmoqda. Bu mintaqalarda zamonaviy rekreasion infratuzilmalar barpo etilishi aholining salomatligini mustahkamlash, ichki turizm hajmini oshirish va xorijiy turistlar oqimini ko‘paytirishga xizmat qiladi.



Hududiy turizm xizmatlarini yanada rivojlantirish uchun xizmatlar bozorini puxta segmentlash, iste'molchilar ehtiyojlarini aniqlash va ularning to'lov qobiliyatini o'rganish muhim ahamiyatga ega. Shuningdek, xorijiy turistlar oqimini kengaytirish maqsadida marketing va PR strategiyalarini diversifikatsiya qilish, brend imijini kuchaytirish hamda xizmatlar sifatini xalqaro standartlarga moslashtirish zarur.

Bugungi tahlillar shuni ko'rsatadiki, O'zbekiston Respublikasiga tashrif buyurayotgan turistlarning 87,1 foizini qo'shni mamlakatlardan keluvchi sayyohlar tashkil etmoqda. Bu esa mintaqaviy hamkorlikning mustahkamligini va transport-logistika yo'nalishlarining qulayligini ko'rsatadi. Shu bilan birga, yangi iste'molchilar guruhini shakllantirish imkoniyatlari ham keng: Xitoy Xalq Respublikasi, Rossiya Federatsiyasi va Indoneziya kabi yirik bozorlardan turistlarni jalb etish istiqbollari yuqori baholanmoqda.

2023-yilda mazkur mamlakatlardan kelgan sayyohlar ulushi 11,5 foizni tashkil qilgani — bu yo'nalishlarda hali katta o'sish uchun zamin mavjudligini bildiradi. Ayniqsa, Rossiya Federatsiyasi bilan tarixiy-madaniy yaqinlik, til o'xshashligi va gastronomik qiziqish O'zbekiston turizm xizmatlarini kengaytirish uchun qo'shimcha imkoniyatlar yaratadi. Shu sababli, kelgusida bu davlatlar bilan qo'shma reklama kampaniyalari, madaniy almashinuv dasturlari va onlayn turizm platformalari orqali hamkorlikni kuchaytirish orqali mamlakatimiz turizm salohiyatini sezilarli darajada oshirish prognoz qilinmoqda.


Xitoy Xalq Respublikasi esa dunyoda aholi soni bo'yicha birinchi o'rinda turadi va ulkan iqtisodiy salohiyatga ega mamlakat hisoblanadi. 2023-yilda Xitoy yalpi ichki mahsulotning o'sish sur'ati bo'yicha Top-10 davlat orasida ikkinchi o'rinni egallagan. Xalqaro aholi o'sishini tahlil qilish instituti ma'lumotlariga ko'ra, 2024-yilda Xitoy aholisi 1 470,78 million nafardan oshgan. Agar mazkur mamlakat aholining atigi 0,5 %i O'zbekistonga turist sifatida tashrif buyursa, bu 7 milliondan ortiq sayyohni qabul qilish imkonini beradi.

Indoneziya davlati esa aholi soni bo'yicha dunyoda to'rtinchi o'rinda turadi va eng ko'p musulmon aholiga ega mamlakatdir. Ushbu davlatdan turistlarni jalb etish uchun O'zbekistonda mavjud ziyorat turizmi obyektlari — xususan, Imom al-Buxoriy, Bahouddin Naqshband, Termiziy kabi buyuk allomalar maqbaralari, shuningdek, Qur'oni Karimning asl nusxasi saqlanayotgan maskanlar muhim ahamiyatga ega. Shu asosda Indoneziyadan ziyorat va madaniy turizm yo'nalishlari bo'yicha minglab sayyohlarni shakllantirish imkoniyati mavjud.

Bizningcha, hududiy turizmning iqtisodiy samaradorligini oshirishda Xitoy Xalq Respublikasi, Rossiya Federatsiyasi va Indoneziya iste'molchilarini o'rganish, zamonaviy marketing metodlaridan samarali foydalanish orqali ushbu mamlakatlardan yangi turistlar oqimini shakllantirish lozim.

Tahlil natijalari shuni ko'rsatmoqdaki, O'zbekistonning hududiy turizm bozori transformatsiya bosqichida bo'lib, mavjud tizimni takomillashtirish orqali sezilarli o'sish zaxiralari ega. Bozorni yanada samarali rivojlantirish uchun bir qator ustuvor yo'nalishlarda metodik yondashuvlar taklif etilmoqda. Xususan, rekreatsion turizm obyektlarini modernizatsiya qilish, sanatoriylar, dam olish uylari va pansionatlar faoliyatini yangicha boshqaruv mexanizmlari asosida takomillashtirish, xizmatlar sifatini xalqaro standartlarga moslashtirish hamda narx va servis darajasi o'rtasidagi muvozanatni ta'minlash maqsadga muvofiqdir.

Ichki va tashqi turistlar fikr-mulohazalari tahlili, xizmat ko'rsatish tizimini yanada sifatli va raqobatbardosh darajaga olib chiqish uchun muhim yo'nalishlarni aniqlashga yordam berdi. Shu asosda hududiy turizmni rivojlantirishdagi asosiy tendensiyalar — iqtisodiy samaradorlikni oshirish, xizmatlar diversifikatsiyasi va innovatsion turistik mahsulotlarni yaratishdan iborat. Bu esa O'zbekistonni Markaziy Osiyodagi raqobatbardosh turizm markazlaridan biriga aylantirish, ichki talabni rag'batlantirish hamda xorijiy sayyohlar oqimini ko'paytirish imkonini beradi (2-rasm).



2-rasm. Hududiy turizmni rivojlantirish sohalari [6]



Hududiy turizmning iqtisodiy samaradorligi ijtimoiy mehnatning umumiy samaradorligining ajralmas elementidir.

Hududlarga tashrif buyurgan turistlarning umumiy soni sayohatda qatnashgan kishilar soni bilan o'lanadi. Bu ko'rsatkich aholini turizm faoliyati bilan qamrab olish ko'lamini tavsiflaydi va xizmat ko'rsatish uchun qabul qilingan ma'lum bir davr uchun turistlar soni ro'yxatga olingan kunlar, ya'ni xizmat ko'rsatishning birinchi kuni bo'yicha jamlash yo'li bilan aniqlanadi.

Tur kunlarining soni kishi-kunlarda o'lanadi va turistlarning umumiy sonini bitta turistning hududda bo'lish o'rtacha davomiyligiga (kunlarda) ko'paytirish yo'li bilan aniqlanadi:

$$D = Ch \times t_{cp} \quad (1)$$

Bu yerda D – tur kunlari soni, kishilar-kunlar; Ch – turistlar, kishilar soni; t_{cp} – bitta turistning ma'lum mintaqada qolishining o'rtacha davomiyligi.

Ushbu hududda umumiy turizm xarajatlarning qiymati – R_{Σ} quyidagicha aniqlanadi:

$$R_{\Sigma} = D \times R \quad (2)$$

Bu yerda P_{cp} – turistning kuniga o'rtacha narxi.

Biroq turistlar oqimi notekis ta'minlanadi. Turistlar oqimining notekisligini tavsiflash uchun notekislik koeffitsiyentlari qo'llaniladi, ular uchta usulda hisoblanadi:

$$K_n = \frac{D_{max}}{D_{min}} \times 100 \%; \quad K_n = \frac{D_{max}}{D_{god}} \times 100 \%; \quad K_n = \frac{D_{max}}{D_{sm}} \times 100 \% \quad (3)$$

Bu yerda D_{max} va D_{min} – eng ko'p va eng kam turist oqimi oyidagi turizm kunlari soni, mos ravishda, kishi-kunlar; D_{god} va D_{sm} – mos ravishda tur kunlarining yillik va o'rtacha oylik soni, kishilar-kunlar.

Tur kunlarining o'rtacha oylik soni yillik tur kunlari sonini 12 oyga bo'lish yo'li bilan aniqlanadi.

$$D_{sm} = D_{god} / 12 \quad (4)$$

Ushbu tahliliy bo'limdan ko'rinadiki, "bir kechada qolish" ko'rsatkichi turizm sohasida nafaqat statistik, balki iqtisodiy tahlil uchun ham muhim o'lchov birligidir. Turizmga "tunab qolish" atamasi yagona ta'rifga ega bo'lmasa-da, u turar joy statistikasida, uy xo'jaliklarini o'rganishda yoki turistik oqimlarni hisoblashda asosiy mezon sifatida qo'llaniladi. Shaxs tashrif buyurgan manzilda kelish va ketish sanalari farq qilsa, bu holat tunab qolish sifatida qayd etiladi. Kunduzgi sayohatlar esa tunashsiz amalga oshirilgani sababli soatlar bilan o'lanadi. Bu yondashuv turizm harakatchanligi, xizmatlar sifati va joylashtirish obyektlaridan foydalanish samaradorligini tahlil etishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Turistlarning kelish-ketish ko'rsatkichlari esa hududiy turizm rivojlanishining o'ziga xos indikatoridir. Turist – bu 12 oydan ortiq bo'lmagan muddatga odatdagi yashash muhitidan tashqariga chiqib, tashrif buyurilgan joyda daromad keltirmaydigan shaxsdir. Uydan uzoqda tunab qolgan bo'lsa – "turist", tunamagan bo'lsa – "kunduzgi tashrifchi" sifatida tasniflanadi. Shu bois, hududga kirib-chiqishlar soni mutlaq ko'rsatkichlarda o'lanadi va u turizm oqimlari dinamikasini aniqlashda asosiy statistika manbai hisoblanadi.


Hududiy turizmni rivojlantirishda ushbu indikatorlar asosida ishlab chiqiladigan chora-tadbirlar iqtisodiy ko'rsatkichlarning yaxshilanishiga, xorijiy valyuta tushumining ortishiga va turistlar oqimining ko'payishiga bevosita ta'sir qiladi. Shu bilan birga, bunday rivojlanish O'zbekistonning xalqaro imijini mustahkamlab, madaniy, ilmiy, savdo va investitsiyaviy aloqalarni kengaytiradi.

Turistlarga xizmat ko'rsatuvchi korxonalarining iqtisodiy salohiyati esa bu jarayonning asosiy tayanchi hisoblanadi. Ular resurslardan samarali foydalanish va ularni ko'paytirish orqali turizm mahsulotining raqobatbardoshligini ta'minlaydi. Olimlar ta'kidlaganidek, "turistlarga xizmat ko'rsatuvchi korxonalar salohiyati – bu mavjud resurslardan samarali foydalanish, ularni ko'paytirish va turizm mahsulotining ishlab chiqarish hamda sotish samaradorligini ta'minlash qobiliyatidir" [7].

Bu salohiyat quyidagi asosiy komponentlardan iborat: moliyaviy imkoniyatlar, iste'molchilar ehtiyojlarini qondirish darajasi, ichki operatsion samaradorlik, inson resurslari va tashqi muhit bilan o'zaro aloqalar sifati. Ushbu elementlar muvozanatli ko'rsatkichlar kartasida o'z ifodasini topadi, u kompaniya qiymatini maksimal darajada oshirishga xizmat qiladi.

Turizm korxonalarining muvozanatli rivojlanish istiqbollari to'rtta strategik yo'nalishda namoyon bo'ladi: birinchidan, investitsiya qilingan kapitalning rentabelligi (moliyaviy istiqbol); ikkinchidan, iste'molchilar ehtiyojlariga mos taklif (mijoz istiqboli); uchinchidan, ichki jarayonlarning samaradorligi (operatsion istiqbol); to'rtinchidan esa, inson resurslarining innovatsion va o'quv salohiyati (o'sish istiqboli).

Ushbu komponentlar uyg'unlashgan holda, O'zbekiston hududiy turizm tizimini barqaror, raqobatbardosh va xalqaro standartlarga mos shaklda rivojlantirish imkonini beradi (3-rasm).



3-rasm. Turistlarga xizmat ko'rsatuvchi tashkilotlarning ishlash ko'rsatkichlarining asosiy salohiyati[8]

Mazkur tahliliy qismdan ko'rinadiki, turizm tashkilotlari faoliyatining o'ziga xos jihati — ularning tashqi omillarga yuqori darajada bog'liqligidir. Shu sababli, tashqi muhit bilan o'zaro ta'sir potensialini turizm tashkilotining umumiy salohiyat tizimiga kiritish zarur. Har qanday tijorat yoki turizm tashkilotining moliyaviy-xo'jalik faoliyatini baholashda asosiy mezon — iqtisodiy samaradorlikning oshgan yoki oshmaganligini aniqlashdan iborat. Shu nuqtayi nazardan, turizm samaradorligini tizimli yondashuv asosida tahlil qilish eng maqbul metod hisoblanadi.

Samaradorlik iqtisodiy tizim sifatini belgilovchi asosiy xususiyatlardan biridir. U faoliyat natijalarini erishilgan foyda va sarflangan xarajatlar nisbati orqali ifodalaydi. Bu mezonlar doirasida iqtisodiy, ijtimoiy-iqtisodiy va ijtimoiy samaradorlik tushunchalari o'zaro uzviy bog'liq. Ularning chegaralari qat'iy bo'lmasa-da, resurslardan oqilona foydalanish, ularni takomillashtirish va innovatsiyalarni joriy etish orqali samaradorlikni oshirish mumkin. Buning natijasida tovar va xizmatlar ishlab chiqarish sifati ortadi, ishbilarmonlik muhiti faollashadi, iqtisodiy o'sish tezlashadi hamda turizm sohasidagi to'siqlar kamayadi.

Hududiy turizm majmuasi samaradorligiga ta'sir qiluvchi omillar ikki asosiy guruhga bo'linadi: shakllantiruvchi va cheklovchi omillar. Shakllantiruvchi omillarga tabiiy, madaniy, tarixiy, mehnat, moliyaviy va yer resurslari kiradi. Ular hududning turistik ixtisoslashuvini belgilab beradi va yangi xizmat turlarini yaratish imkonini beradi. Faoliyat omillari esa inson faoliyati natijasida shakllanadi — ya'ni texnologik, innovatsion va hunarmandchilik salohiyati orqali hududiy raqobatbardoshlikni ta'minlaydi.

Shu boisdan, turizm xizmatlarini rivojlantirishda davlat siyosati iqtisodiy mexanizmlar bilan bir qatorda, inson resurslarini tayyorlash, transport tizimini modernizatsiya qilish, turistlar xavfsizligini ta'minlash, tarixiy merosni asrash hamda ekologik muvozanatni saqlashga qaratilgan kompleks yondashuvni talab qiladi. Bu omillar uyg'unlashgan taqdirda, O'zbekiston hududiy turizmi barqaror, raqobatbardosh va xalqaro maydonda jozibador tizimga aylanishi kutiladi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Bugungi kunda jahon turizm sanoati barqaror rivojlanish tamoyillari asosida yangicha bosqichga kirib bormoqda. Shu jarayonda O'zbekiston ham global tendensiyalar bilan hamohang ravishda o'z turizm siyosatini diversifikatsiya qilmoqda. Eng avvalo, ekologik turizm yo'nalishiga e'tibor kuchaymoqda. Sayyohlar orasida tabiatni asrash, atrof-muhitga zarar yetkazmaslik, "yashil" sayohatlar konsepsiyasiga amal qilish istagi ortib bormoqda. O'zbekistonning milliy bog'lari, tog' va cho'l ekotizimlari, shuningdek, qishloq joylardagi ekologik yo'nalishli turizm loyihalari bu borada katta imkoniyat yaratadi. Ekoturizmni rivojlantirish nafaqat tabiiy resurslarni muhofaza qilish, balki mahalliy aholining daromad manbalarini kengaytirish va barqaror iqtisodiy faollikni ta'minlashga xizmat qiladi.

Ikkinchi yo'nalish — madaniy va etnik turizm. Bugungi sayyoh endi faqat dam olishni emas, balki yangi madaniyatlar, urf-odatlar, milliy taomlar va tarixiy meros bilan tanishishni ham maqsad qiladi. Shu bois madaniy va etnoturizm global miqyosda eng istiqbolli segmentlardan biriga aylandi. O'zbekistonning boy madaniy merosi — Samarqand, Buxoro, Xiva kabi tarixiy shaharlar, xalq amaliy san'ati, milliy festivallar va oshpazlik an'analari xorijiy sayyohlar uchun jozibadorlikni oshiruvchi asosiy omillardir.

Uchinchi yo'nalish sifatida turizmدا personalizatsiya jarayoni tobora kuchaymoqda. Zamonaviy sayyoh standart turpaketlardan ko'ra, o'z xohish va ehtiyojlariga mos individual yo'nalishlarni tanlamogda. Shu sababli turoperatorlar va agentliklar turistlarning yoshi, daromadi, qiziqish sohasi, sayohat maqsadi kabi



mezonlarga ko'ra maxsus paketlar ishlab chiqmoqda. Bunday shaxsiylashtirilgan yondashuv xizmatlar sifatini oshiradi, mijozlarning ishonchi va sodiqligini mustahkamlaydi hamda turizm xizmatlari bozorida raqobatni sog'lomlashtiradi.

Nihoyat, raqamli texnologiyalar turizm sohasining eng muhim o'sish drayverlaridan biriga aylandi. Sun'iy intellekt (AI), virtual reallik (VR) va kengaytirilgan reallik (AR) texnologiyalari xizmatlarni yangi darajaga olib chiqmoqda. Virtual turlar orqali sayyohlar manzil bilan safarga chiqmasdan tanishish imkoniga ega bo'lmoqda, mobil ilovalar esa marshrut tuzish, bron qilish, tarjimonlik va navigatsiya jarayonlarini osonlashtirmoqda. Bu o'z navbatida "aqlli turizm" (smart tourism) ekotizimini shakllantirib, xizmatlar tezligi, aniqligi va qulayligini ta'minlamoqda.

Umuman olganda, ekologik, madaniy, personalizatsiyalangan va raqamli texnologiyalar asosidagi turizm yo'nalishlarini kompleks rivojlantirish O'zbekistonni mintaqadagi raqobatbardosh turistik markazlardan biriga aylantiradi hamda xalqaro maydonda milliy turizm brendining barqaror o'sishini ta'minlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. S.G. Mejdunarodnyy turizm v Rossii: problemy razvitiya i upravleniya / S.G. Surkov, V.I. Krivoruchko. – M.: Sovetskiy sport, 2009. – 214 s.
2. Alimova M.T. Hududiy turizm bozorining rivojlanish xususiyatlari va tendensiyalari (Samarqand viloyati misolida) // I.f.d. diss. – Samarqand: SamISI, 2017. 25-26-b.
3. Tuxliyev I.S., Hayitboyev R., Safarov B.Sh., Tursunova G.R. Turizm asoslari. Darslik. O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi. – T.: «Fan va texnologiya», 2014. 151-b.
4. M.T. Aliyeva. Mehmonxona menedjmenti. Darslik. – T.: 2007. -335s.
5. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligining 2023-yilda O'zbekiston Respublikasida turizm va dam olish rivojlanishining asosiy ko'rsatkichlari nomli statistik byulleten ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlangan.
6. Dustmurodov O.I. Hududiy turizm rivojlanishining iqtisodiy samaradorligini oshirishni o'ziga xos tendensiyalari. // Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot. 8-son. – T., 2024-yil. 458-467-betlar.



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2025. № 10

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

EI.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>
